

PAPER

TEKNOLOGIYA FANIDAN TIKUVCHILIK TO‘GARAGINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna¹ and Yuldasheva Muxtasarxon Ikromjon
qizi²

¹Qo‘qon davlat universiteti dotsenti and ²Qo‘qon davlat universiteti texnologik ta‘lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

* usmonovamuxlisaxon@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada texnologiya fanini o‘qitishda sinfdan tashqari faoliyat — xususan, “Tikuvchilik to‘garagi” tashkil etishning ahamiyati ahamiyati yoritilgan. Tikuvchilik to‘garaklarida o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, kasb-hunar tanlashda yo‘l topish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ta‘kidlangan. Maqolada Tikuvchilik to‘garaklari tashkil etish bosqichlari, to‘garakning o‘quvchilarga foydali taraflari, o‘qituvchining roli haqida ham aniq tavsiyalar berilgan. Ushbu yondashuv texnologiya fanini yanada mazmunli va samarali o‘qitishga xizmat qiladi.

Key words: Tikuvchilik, sinfdan tashqari ishlar, o‘quv dasturi, kasb –hunar, kadrlar, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, texnologik ta‘lim.

Kirish

Respublikamiz o‘zining mustaqil taraqqiyotiga erishgach 1997 - yil 29-avgustda “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Bu muhim xujjatning asosiy maqsadi, ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Shuningdek, ta‘limda bir qator ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda hamda ta‘limni amaliyot bilan bog‘lash, bundan tashqari, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga qo‘llash ilgari surilmoqda. Ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, qo‘llash, shu bilan bir qatorda ta‘lim samaradorligini oshirish uchun o‘qitishda muammoli ta‘lim metodidan foydalanish innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan turli xil to‘garak mashg‘ulotlari tashkil etish bilan, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini kamaytirib, fikrlash doirasini kengaytirishga yaqindan yordam berishi tabiiydir.

Asosiy qism

Umuman olganda dars vaqt jixatidan chegaralangan bo‘lib mehnat ta‘limiga oid bo‘lgan barcha bilimlarni o‘quvchilarga yitkazish juda qiyin. Bunday ishlarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning biror bir turini tashkil qilish bilan bu bushliqni bartaraf etish mumkin.

Xolbuki sinfdan tashqari mashg‘ulot deb, o‘quv dasturidagi hamda rejadagi materallarga bog‘liq bo‘lmagan shu bilan bir qatorda sinfdagi xoxlagan o‘quvchilar bilan belgilangan muddatda ma‘lum bir vaqt oralig‘ida jadval asosida olib boriladigan o‘quvchilar mashg‘ulotga aytiladi. Maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish ularning ta‘lim jarayonini qo‘llab quvvatlash, qobiliyatlarini rivojlantirish va foydali odatlarni shakllantirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etishda tikuvchilik to‘garagining o‘rni ahamiyatlidir. Nafaqat foydali kasb o‘rganish, balki ijodiy tafakkurni rivojlantirish, mustaqil ish olib borish va moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun ham ajoyib imkoniyatdir.

Tikuvchilik to‘garagining foydalari

- Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi – O‘quvchilar matolar, ranglar va naqshlar bilan ishlash orqali o‘z didini shakllantiradi. - Amaliy ko‘nikmalarni oshiradi – Oddiy kiyimlardan tortib, murakkab liboslar

yoki aksessuarlar tikish ko'nikmasi ortadi. –Kasbga tayyorlaydi – Tikuvchilik kasbini o'rganish kelajakda o'z biznesini yo'lga qo'yish imkonini beradi.

–E'tibor va sabr-toqatni oshiradi – Chizma va naqsh bilan ishlash, tikish jarayoni diqqatni jamlash va puxtalikni talab qiladi. – Ekologik ongini shakllantiradi – Tikuvchilik orqali kiyimlarni qayta ishlash ortiqcha matolardan foydali buyumlar yaratish o'rgatiladi

Tikuvchilik — kasb-hunar turi; kiyim-kechak: ko'rpa-to'shak va boshqa buyumlarni tikish kasbi. Tikuvchilik vositalari, material va texnikasi turli davrlarda turli xalqlarning moddiy va madaniy saviyasi, iqlim sharoiti, ehtiyoj va imkoniyatlari, urf-odatlarini zaminida taraqqiy etgan. Arxeologik qazishlar natijasida jaxonning turli mamlakatlari hududidan topilgan tikuvchilik vositalari, kiyim-kechak va uy-ro'zg'or buyumlari bu kasbning barcha xalqlarda qadimdan mavjudligi, o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini o'taganligini ko'rsatadi. Tikuvchilik buyumlari dehqonchilik bilan shug'ullanadigan xalqlarda ko'proq o'simlik tolalaridan to'qilgan gazlamalardan, chorvador xalqlarda aksariyat jun gazlama va teridan tikilgan.

Har bir o'quvchi hech bo'lmaganda tikuvchilikning oddiy ishlarini bilishlari kerakdir. O'quvchilar orasida texnologiya darslarida faol qatnashib murakkab va ko'proq narsani o'rganishni xohlaydiganlari ham bor. Bu o'quvchilar uchun albatta tikuvchilik to'garaklari tashkil qilish kerak va boshqa o'quvchilarni ham ushbu to'garaklarga jalb qilish kerak.

Tikuvchilik to'garagini tashkil etishning asosiy maqsadi ishtirokchilarga tikuvchilik san'ati bo'yicha nazariy va amaliy bilim berish, ularning kasbiy mahoratini oshirish hamda milliy va zamonaviy kiyim-kechak tikish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Tikuvchilik to'garaklariga qatnashgan o'quvchilar:

Kasbiy ko'nikmalarni rivojlanadi- to'garak qatnashchilari tikuvchilik asoslarini o'rganib, mustaqil ish yuritish va sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ijodiy qobiliyatni rivojlanadi – to'garak ishtirokchilari dizayn yarata oladi, mato tanlashni biladi, ranglarni uyg'unlashtirib modaga mos kiyimlar tikishni o'rganadilar. Tikuvchilik to'garaklari tashkil qilish baravarida hunarmandchilik an'analari saqlanadi. Milliy tikuvchilik an'analari va naqshlarini o'rganish orqali madaniy merosni asrash va rivojlantirishga hissa qo'shiladi. Kasbiy tayyorgarlikni oshirish mumkin – Tikuvchilik bo'yicha bilim va tajriba orttirgan ishtirokchilar kelajakda o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishi yoki kasb-hunar markazlarida ish topishi mumkin.

Tikuvchilik to'garagi ishtirokchilarga foydali hunar o'rgatib, ularning ijodiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tikuvchilik san'ati insonning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va hunarmandchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ushbu jarayon nafaqat kiyim-kechak tikish bilan cheklanib qolmay, balki bezak san'ati, mato dizayni va milliy naqshlarni yaratish kabi ijodiy faoliyatni ham o'z ichiga oladi.

Dizaynerlik qobiliyatini shakllanadi. To'garak qatnashchilari kiyim modellarini loyihalash, turli uslublar yaratish va o'ziga xos bezak elementlarini qo'shish orqali ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Har xil matolar va ranglarning bir-biriga mos kelishini tushunish orqali san'atga bo'lgan qiziqish ortadi. Kiyim dizayni uchun eskizlar chizish, milliy va zamonaviy naqshlarni qo'llash ishtirokchilarning ijodiy tafakkurini oshiradi. Tikuvchilik san'atida yangi uslublarni sinab ko'rish, turli matolar bilan tajriba qilish ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Milliy va zamonaviy tikuv usullarini o'rganish orqali ishtirokchilar chiroyli va mustahkam choklar tikishni o'zlashtiradilar. Tikuvchilik san'ati nafaqat mashina yordamida, balki qo'l mehnati orqali ham bajariladi. Kashta tikish, gul solish, zardo'zi kabi milliy hunarmandchilik an'analari rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Tikuvchilik to'garagi o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi.

–Har xil kiyim shakllarini yaratish, o'lchov olish va andazalar bo'yicha tikish mahoratini oshirish imkonini beradi.

–Dizayn va modellashirish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish. –Milliy hunarmandchilik elementlarini tikuvchilikda qo'llash (kashtado'zlik, zardo'zlik, gilamchilik).

–O'quvchilarning o'z kiyim dizaynlarini ishlab chiqishiga imkon yaratish. –Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish. –O'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini foydali o'tkazishlariga ko'maklashish. –Ularni ijtimoiy jihatdan faol bo'lishga undash va foydali hunar o'rganishga rag'batlantirish.

–Tikuvchilik bo'yicha maktab ichida ko'rgazmalar va tanlovlar tashkil qilish.

Tikuvchilikning nafaqat uy-ro'zg'or uchun, balki biznes va tadbirkorlik uchun ham muhim bo'lim mumkin. Tikuvchilik sohasida ish bilan ta'minlanish imkoniyatlari va kelajakda o'z ateliesini ochish to'g'risida orzu va maqsadlar qo'yishi, o'quvchilarga kelajakda mustaqil daromad topish ko'nikmalari shakllanishu, qayta ishlash va ekologik muammolarni hal etishga hissa qo'shishi (eski kiyimlarni yangilash, chiqindisiz ishlab chiqarish) mumkin.

Ushbu maqsadlar orqali tikuvchilik to'garagi o'quvchilar uchun nafaqat hunar o'rgatuvchi, balki ularning ijodiy va iqtisodiy tafakkurini rivojlantiruvchi muhim maydon bo'lib xizmat qiladi.

Tikuvchilik to'garagini samarali tashkil etish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish kerak:

1.Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi Bu bosqichda to'garak faoliyatini rejalashtirish va zaruriy sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi. Maqsad va yo'nalishni aniqlash. To'garakning asosiy maqsadini belgilash

– Joy va sharoit yaratish Maktab yoki markazda tikuvchilik uchun qulay xona ajratish.Stol-stullar, tikuv mashinalari va boshqa jihozlarni tayyorlash. – Zaruriy materiallarni to'plash Tikuv mashinalari, matolar, iplar, ignalar, qaychi va boshqa asbob-uskunalar xarid qilish. Foydalaniladigan matolar va naqshlar uchun resurslarni yaratish.

– Guruh shakllantirish Qatnashuvchilar sonini aniqlash va ro'yxatga olish. O'quvchilarning yosh va qiziqishlariga qarab guruhlar ajratish.

2. O'quv dasturini ishlab chiqish To'garak mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun bosqichma-bosqich o'qitish tizimi yaratish kerak.

– Boshlang'ich daraja (1-oy) Tikuvchilikka kirish, xavfsizlik qoidalarini. Igna va ip bilan ishlash asoslari. Qo'lda oddiy tikish texnikalarini o'rganish. Matolar va ularning xususiyatlari bilan tanishish.

– O'rta daraja (2–4-oylar) Tikuv mashinasidan foydalanish. Oddiy kiyim va aksessuarlar tikish (sharf, sumka, yostiq jildlari). Liboslar uchun naqshlar tayyorlash va ulardan foydalanish. Qayta ishlash (eski kiyimlardan yangi mahsulotlar yaratish).

–Yuqori daraja (5–6-oylar) Kiyim tikishning murakkab texnikalarini o'rganish.

Kashtachilik va bezak berish usullarini o'zlashtirish. Mijozlar bilan ishlash va buyurtmalarni qabul qilish asoslari. Tikuvchilikda biznes boshlash haqida bilim olish.

3.Mashg'ulotlarni tashkil etish

–Amaliy darslar O'quvchilar mustaqil ravishda kiyim va buyumlar tikishadi. Ustozlar tomonidan kuzatuv va maslahat beriladi.

– Ijodiy loyihalar O'quvchilar o'z dizayn loyihalarini ishlab chiqadi. Har bir ishtirokchi o'z tikkan mahsulotini namoyish qiladi.

– Ko'rik-tanlovlar va ko'rgazmalar Eng chiroyli va sifatli ishlangan tikuv mahsulotlarini namoyish qilish. Eng yaxshi

ishtirokchilarni rag'batlantirish.

- Mahorat darslari va seminarlar Tajribali tikuvchilar va dizaynerlar ishtirokida master-klasslar tashkil qilish. Ishlab chiqarish korxonalari va modalar uylari bilan tanishish.

Tikuvchilik to'garagiga o'quvchilarni jalb qilish va targ'ibot ishlari samarali tashkil etilsa, ishtirokchilar soni ko'payadi va to'garak faoliyati yanada rivojlanadi. Quyidagi usullar bu jarayonda yordam beradi:

1. O'quvchilar va ota-onalar bilan muloqot

- Sinflar bo'ylab taqdimot o'tkazish

- Ota-onalar bilan uchrashuvlar

- O'quvchilar bilan suhbatlar va qiziqtirish

2. Maktab ichida targ'ibot ishlari

- E'lonlar va plakatlarni joylashtirish

- Mahsulot namoyishi va ko'rgazmalar tashkil qilish

- Sinflarda sinov darslarini tashkil qilish

- Bir necha sinf uchun bepul mahorat darslari o'tkazish.

- Yutuqli tanlovlar o'tkazish "Eng yaxshi tikilgan libos" "Eng chiroyli kashta" kabi tanlovlar uyushtirish. - Faol ishtirokchilarni rag'batlantirish

O'quvchilarni tikuvchilik to'garagiga jalb qilish uchun keng qamrovli targ'ibot ishlari olib borish kerak. Samarali reklama, amaliy mashg'ulotlar, tanlovlar va mukofotlash tizimi orqali o'quvchilar qiziqtirilsa, ular to'garakka faol qatnashadi.

To'garak ishlarida to'garak rahbari ya'ni o'qituvchi asosiy shaxs bo'lib, o'quvchilarga bilim berish va ularni tikuvchilik sohasiga jalb qilishda muhim o'rin tutadi.

- O'quv jarayonini rejalashtirish Dars rejasi va mashg'ulot dasturini ishlab chiqish. O'quvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanishiga e'tibor qaratish. Tikuvchilikning nazariy va amaliy qismiga alohida e'tibor qaratish.

- Mashg'ulotlarni olib boorish O'quvchilarga tikuvchilikning asosiy texnikalarini o'rgatish. Tikuv mashinalari, naqsh chizish va matolar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar berish. Har bir o'quvchining qiziqishiga qarab individual yondashish.

- Disiplinani saqlash va motivatsiya berish O'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash. To'garak jarayonida tartib-intizom qoidalariga rioya qilishni nazorat qilish. Eng yaxshi ishtirokchilarni rag'batlantirish va mukofotlash.

- Ijodiy loyihalar va tanlovlar tashkil etish O'quvchilar ishtirokida moda namoyishlari yoki qo'l mehnati ko'rgazmalarini tashkil etish. Tikuvchilik bo'yicha turli tanlovlar va loyihalar o'tkazish. O'quvchilarni milliy hunarmandchilik elementlari bilan tanishtirish.

- Ota-onalar va maktab jamoasi bilan hamkorlik qilish Ota-onalarga farzandlarining rivojlanishi haqida ma'lumot berish. Maktab jamoasi bilan birga ishlash va ularning qo'llab-quvvatlashdagi foydalanish. To'garak uchun zaruriy materiallarni yetkazib berish masalasida maktab ma'muriyati bilan ishlashni bilish kerak.

Xulosa

Tikuvchilik to'garagi nafaqat kasb-hunar o'rgatish, balki o'quvchilarning mehnatsevarligi, mustaqil fikrlashi, dizayn va modaga oid tasavvurini shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. To'garak rahbari va maktab jamoasi o'zaro hamkorlikda ishlasa, o'quvchilar uchun yanada qulay o'quv muhiti yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, tikuvchilik to'garagi o'quvchilarga mustaqil ijodkorlik, tadbirkorlik va jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatini ham beradi. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki kelajakda ish bilan ta'minlanishiga ham zamin yaratadi. Shu sababli, tikuvchilik to'garaklarini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva, M. (2019). Kasb-hunar ta'limida texnologik ta'lim asoslari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Xasanova, D. (2021). Tikuvchilik va moda dizayni asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2020). Kasb-hunar ta'limi dasturlari va tavsiyalari. Toshkent.
4. Karimov, A. (2018). Hunarmandchilik va zamonaviy kasb-hunar ta'limi. Samarqand: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
5. Mamatova, G. (2022). Dizayn va tikuvchilikda innovatsion yondashuvlar. Buxoro: "Sharq" nashriyoti.
6. Xolmirzayeva, N. (2020). Tikuvchilikda zamonaviy texnologiyalar va ularning amaliy qo'llanilishi. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi "Kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori.
8. Xalq ta'limi vazirligi rasmiy veb-sayti: www.uzedu.uz (<https://www.uzedu.uz/>)
9. Kasb-hunar ta'limi markazi metodik qo'llanmalari: www.kasbhunar.uz (<https://www.kasbhunar.uz/>)
10. Zamonaviy kasb-hunar ta'limi va hunarmandchilik bo'yicha xalqaro tajribalar – UNESCO ta'lim resurslar